

Qashqadaryo viloyatida demografik holat

2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025- yilning 1-oktabr holatiga Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni **3 697,6** ming kishini tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **2,2** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni **75,1** ming nafarni, vafot etganlar **11,6** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **63,5** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **2** kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **10** kishini, qayd etilgan nikohlar **17,7** mingtani, nikohdan ajralishlar **2,5** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

3 697,6 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

75,1 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

11,6 *ming kishi*

Xorijdan ko'chib kelganlar

2 *kishi*

Xorijga ko'chib ketganlar

10 *kishi*

Nikohlar soni

17,7 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

2,5 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


Qashqadaryo viloyatida doimiy aholi soni 2025- yil 1-oktabr holatiga ko'ra **3 697,6** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **79,3** ming kishiga yoki **2,2** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **1 576,6** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **42,6%**), qishloq joylarda esa **2 121,0** ming kishi (**57,4%**) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 822,0** ming kishini (**49,3%**), erkaklar esa **1 875,6** ming kishini (**50,7%**) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	3 618,3	3 697,6	102,2
Qarshi shahri	299,4	305,1	101,9
Shahrisabz shahri	149,3	152,0	101,8
tumanlar:			
G'uzor	225,8	230,7	102,2
Dehqonobod	161,9	165,3	102,1
Qamashi	298,1	305,0	102,3
Qarshi	277,6	284,8	102,6
Koson	317,4	324,9	102,4
Kitob	286,0	291,8	102,0
Mirishkor	131,6	134,3	102,1
Muborak	94,7	96,6	102,0
Nishon	169,6	173,6	102,4
Kasbi	216,5	221,1	102,1
Ko'kdala	192,9	198,8	103,1
Chiroqchi	272,8	279,4	102,4
Shahrisabz	237,9	241,8	101,6
Yakkabog'	286,8	292,4	102,0

Qashqadaryo viloyatida 2025- yil 1-oktabr holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **129,4** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **2,8** kishiga ortgan (2024- yil 1-oktabr holatiga 1 kv.km.ga **126,6** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **75,1** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **27,4** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan **0,3** ming nafarga ko'paygan.

Vafot etganlar soni **11,6** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,2** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan, **0,4** ming nafarga kamaygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **75,1** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **39,2** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **52,2** %), qiz bolalar soni **35,9** ming kishini (**47,8** %) va shahar joylarida **29,5** ming kishini (**39,2** %), qishloq joylarida **45,6** ming kishini (**60,8** %) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **11,6** ming kishini, shundan erkaklar **6,4** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,2** %), ayollar **5,2** ming kishini (**44,8** %) va shahar joylarida **5,3** ming kishini (**45,7** %), qishloq joylarida **6,3** ming kishini (**54,3**%) tashkil qildi.


Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi



IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **17,7** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,5** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan **0,2** ming birlikka kamaygan.


Nikohdan ajralishlar soni **2,5** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **0,9** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming birlikka ko'paygan.



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **17,7** ming birlikni, shundan shahar joylarida **7,7** ming birlikni (**43,5** %), qishloq joylarida **10,0** ming birlikni (**56,5** %) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **2,5** ming birlikni, shundan shahar joylarida **1,3** ming birlikni (**51,9** %), qishloq joylarida **1,2** ming birlikni (**48,1** %) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025- yil yanvar-sentabr oylarida ko'chib kelganlar jami soni **10 041** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **10 039** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **2** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **15 179** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **15 169** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **10** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Qashqadaryo viloyati	10 041	10 041	2	15 179	15 169	10
Qarshi shahri	2 841	2 841	0	2 643	2 641	2
Shahrisabz shahri	731	731	0	881	880	1
tumanlar:						
G'uzor	62	62	0	760	759	1
Dehqonobod	124	124	0	580	579	1
Qamashi	467	467	0	1 062	1 062	0
Qarshi	2 010	2 009	1	1 289	1 289	0
Koson	451	451	0	889	889	0
Kitob	487	487	0	1 092	1 091	1
Mirishkor	225	225	0	400	399	1
Muborak	234	234	0	463	463	0
Nishon	576	575	1	814	814	0
Kasbi	200	200	0	644	644	0
Ko'kdala	243	243	0	128	128	0
Chiroqchi	360	360	0	1 011	1 010	1
Shahrisabz	612	612	0	1 269	1 269	0
Yakkabog'	418	418	0	1 254	1 252	2

Jinslar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuvi shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
B. Temurov
75 221-15-84 (7071)

Manzil:
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi shahar, Mustaqillik shoh
ko'chasi 2 b-uy
